

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh


16 iyun, 2025 yil



Bankni strategik rivojlantirish
departamenti

SQB, Ipoteka va NBU evrobondlarining daromadliligi (2025-yil 1 yanvar-16 iyun, Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra)

UzSQB, Ipoteka banki va O'zmilliybank evrobondlarining daromadliligi, foizlarda




- 2024-yilning yozida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarining birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.
- Mart oyida SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'sishni boshladi. O'tgan hafta boshida daromadlilik 8,088% ga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 7,954% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 7,837% – 9,126% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 7,451% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 7,429% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 7,429% – 8,878% gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta Ipotekabank evrobondlarining daromadliligi o'sishni boshladi va 6,689% ga yetdi. Biroq, haftaning oxiriga kelib daromadlilik pasayib, 6,644% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,962% – 8,533% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi




Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 4,26-4,49% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 4,29% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u biroz pasayib, 4,28% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) joriy haftaning boshiga kelib 2,004% (3 oylik) va 2,056% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,685% (6 oylik) va 2,789% (3 oylik) ni tashkil etdi.




O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo hajmi **1221,9** million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan **281,5** million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi **12 712** so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko'tarilib, **12 760** so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha **3,5-4,5%** ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (**9,77%**), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon revalvatsiya **1,12%** ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




16.06.2025 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs **Tenge bank**da qayd etilgan – **12 800** so'm. Boshqa banklarda esa kurs **12 810** – **12 970** so'm atrofida o'zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs **BRB bank**da qayd etilgan – **12 900** so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs **12 880-12 700** so'm atrofida bo'lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)




- **USD/RUB:** O'rtacha tebranishlar fonida rublning mustahkamlanishi

Valyuta bozorida Rossiya rubli AQSh dollariga nisbatan ijobiy dinamikani namoyon etmoqda. So'nggi savdo sessiyalari ma'lumotlariga ko'ra, USD/RUB kursi pasayish tendentsiyasini ko'rsatib, dollarga nisbatan 80,60 rubldan 79,80 rubulgacha tushdi. Kuzatilayotgan rubldagi mustahkamlanish haftaning o'rtalarida boshlangan qisqa muddatli trendning davomidir. Tahlilchilar bu tebranishlarni neft narxlarining o'zgarishi, AQSh Markaziy bankining foiz stavkasi bo'yicha kutishlar hamda Rossiyada soliq davri kabi omillar bilan bog'lashmoqda, bu esa odatda rubldan likvidlikka bo'lgan talabni qo'llab-quvvatlaydi.



- **RUB/CNY:** barqaror talab fonida rublning yuanga mustahkamlanishi

Valyuta bozorida o'rtacha tebranishlar fonida Rossiya rubli Xitoy yuani qarshisida mustahkamlanish ko'rsatmoqda. So'nggi savdo haftasida rublning yuanga nisbatan kursi asta-sekin pasayib bordi, bu rublning qadri oshayotganidan darak beradi. Bunday o'zgarishlar Rossiya va Xitoy o'rtasidagi savdo balansidagi o'zgarishlar hamda kun davomidagi eksportyorlar faolligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Rublning yuanga nisbati neft narxlar, Osiyo bozorlaridagi valyuta dinamikasi hamda global pul-kredit siyosati fonidagi kayfiyatlar ta'sirida qolishi mumkin.




- **EUR/USD:** Dollar yevroga nisbatan qadrsizlandi

Yevro/dollar valyuta jufti so'nggi savdo sessiyalarida barqaror harakat qilmoqda, o'rtacha tebranishlar kuzatilmogda. Haftaning davomida kurs 1,14–1,16 oralig'ida harakat qilib, jahon valyuta bozorida talab va taklifning muvozanatlangan nisbatini aks ettirdi. Yaqin kunlarda EUR/USD kursi 1,14–1,17 oralig'ida tebranishni davom ettirishi ehtimoli yuqori. Asosiy xavf va o'zgarishlarni rag'batlantiruvchi omillar geosiyosiy vaziyat hamda dunyoning yetakchi iqtisodiyotlaridan keladigan iqtisodiy ma'lumotlarga bog'liq bo'ladi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlarini dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)



➤ Oltinning narxi o'sishda davom etmoqda

Isroil Eronning yadro obyektlariga aviatsion zarbalar berganidan so'ng, oltinning narxi keskin oshdi. Eng yuqori cho'qqida metal 1,7% ga qimmatlashdi, chunki investorlar uni «panoh joyi» sifatida talab qildilar, so'ngra biroz pasaydi. Bozorlar xavotirda bo'lib, riskga chidamlilik kamayayotgan bir pallada, oltin nafaqat mojaroning kengayishidan himoya vositasi sifatida, balki inflyatsiya va bozor o'zgaruvchanligining kutilmagan o'sishlaridan himoya sifatida ham yuqori talabga ega bo'ladi. Narxlarning o'sishi AQShdagi inflyatsiya va bandlik bo'yicha zaif statistikalar fonida ikki kunlik narx ko'tarilish tendensiyasini davom ettirdi. Bu esa yil oxirida AQSh Federal zaxira tizimi tomonidan foiz stavkalarining pasaytirilishi kutilishini kuchaytirdi.


Brent nefti narxlarini dinamikasi
(bir barrel uchun,
AQSh dollarida)



➤ Neft narxlarini Trampning bayonotlaridan so'ng keskin oshdi

Jahon bozorlarida neft narxlarini keskin oshib, Brent neftining bir barrel narxi 74 dollardan oshdi. Neft narxlarining o'sishi AQSh va Xitoy o'rtasidagi muzokaralar haqidagi yaxshi yangiliklar tufaylidir. Donald Tramp ikki mamlakat delegatsiyalari savdo kelishuvi asosiy shartlarini kelishib olgani haqida bayonot berdi. Endi bu shartlar davlat rahbarlari tomonidan tasdiqlanishi kerak. Bundan tashqari, bozor Trampning Eron haqidagi bayonotiga ham e'tibor qaratdi. U Tehron bilan yadroviy dastur bo'yicha kelishuvga erishish imkoniyatiga endi shunchalik ishonchi yo'qligini bildirdi. Agar Eron bilan kelishuv imzolalmasa, demak Eron neft eksportiga qarshi sanksiyalar kuchda qolaveradi.

TTF gaz narxlarini dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



➤ Yevropada gaz narxi keskin ko'tarildi

Isroilning Eronning harbiy va yadroviy obyektlariga zarbalaridan so'ng Yevropa birjalarida gaz narxlarini oshmoqda. Mojaroning kuchayishi Ormuz bo'g'ozining yopilish xavfini tug'dirmoqda, bu bo'g'oz orqali jahon suyuqlashtirilgan tabiiy gaz (STG)ning 20% eksport qilinadi. Narxlarning ko'tarilishi Isroilning Eronning harbiy va yadroviy obyektlariga zarba berganidan keyin yuz berdi. So'nggi bir necha yilda Rossiya gazining Yevropaga yetkazib berilishi sanksiyalar va qarshi sanksiyalar sababli sezilarli darajada kamaydi, shu sababli Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun asosiy manba sifatida, jumladan Fors ko'rfazi mamlakatlaridan olib kelinadigan, suyuqlashtirilgan tabiiy gaz xizmat qilmoqda.

Yangiliklar

JPMorgan kredit riskini baholashni yaxshilash uchun sun'iy intellektni joriy qilmoqda

JPMorgan kredit ballash tizimini yanada aniqroq qilish va qarz berish bo'yicha qarorlarni tezlashtirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanmoqda. Bu risklarni kamaytirish va mijozlarga xizmat sifatini oshirish imkonini beradi. Sun'iy intellektni joriy etish ariza ko'rib chiqish vaqtini sezilarli darajada qisqartirishini allaqachon ko'rsatdi.

Deutsche Bank mijozlarning biometrik xavfsizligini kuchaytirmoqda

Deutsche Bank yuzni, barmoq izini va ovozni tanish orqali ko'p faktorli autentifikatsiyani joriy etmoqda. Bu firibgarlik xavfini kamaytirib, mobil va internet-bank xizmatlarining xavfsizligini oshiradi. Bank barcha raqamli xizmatlarda biometrikani kengroq qo'llashni rejalashtirmoqda.

Wells Fargo mijozlarni qo'llab-quvvatlashni sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirmoqda

Wells Fargo mijozlarning so'rovlarini qayta ishlash uchun ovozli yordamchilar va chat-botlardan foydalanishni kengaytirmoqda. Avtomatlashtirish operatorlar yukini kamaytirishga va javob berish tezligini oshirishga yordam beradi. Mijozlar esa kunu-tun qo'llab-quvvatlash va maslahatlarga ega bo'lishadi.

Goldman Sachs Apple Pay bilan hamkorlikni kengaytirmoqda

Goldman Sachs Apple Pay integratsiyasini kuchaytirib, mijozlarga kengaytirilgan funksiyalar va bonus dasturlarini taklif qilmoqda. Bu foydalanuvchi tajribasini yaxshilash va naqd pulsiz to'lovlar sonini oshirish imkonini beradi. Bank mobil to'lovlar va raqamli hamyonlarga sarmoya kiritishni davom ettirmoqda.